



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi.....	28
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish	34
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning	37
Burkhonova Zarafruz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich	
The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition.....	40
Dilorom Poyonova	
Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish	45
Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna	
Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture.....	49
Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	52
Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna	
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish	57
Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinovna	
Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish.....	61
Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish	65
Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi	
An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms	68
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna	
The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs	71
Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna	
Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish	74
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi	
Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish	77
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi	
O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi	80
Sh. F. Mustafayeva	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	85
Turayev Alimjan Bahriddinovich	
The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development.....	88
Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina	
A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning.....	91
Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich	
Modern Education and Training Practices for Future Dentists	94
Turumova Marjona Bahodirovna	
Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish.....	98
Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna	



Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari	102
<i>Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari	106
<i>Xoldarova Mubina Qudratbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari	110
<i>Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi</i>	
Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков	114
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры	118
<i>Мукимов Олим Эргашевич</i>	
Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework	122
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich</i>	
Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта	125
<i>Хужаниязова Гузаль Юлдашевна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish	130
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar	133
<i>Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi</i>	
Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida.....	138
<i>Rustamova Ma'mura Asqar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish	141
<i>Shorustamboyeva Shahnoza Ulug'bekovna</i>	
The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language	144
<i>Tursunoy Ortiqova</i>	
Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili	149
<i>Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash ..	153
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	156
<i>Murtazayeva Nasiba Komiljonovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish	159
<i>Xusnidinova Saodat</i>	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	163
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
Integrating Quizlet, Kahoot, and Padlet Into Vocabulary Instruction: An Experimental Study With Undergraduate Philology Students.....	167
<i>Inoyatova Umida Boxadir qizi</i>	
Advantages and Disadvantages of Teaching Students Via Competent Based Approach in Order to Improve Their Listening and Speaking in Finland	171
<i>Abdukhakimova Kamola Akmalovna, Rahmatova Mohijahon Ahmad qizi</i>	
Kimyo ta'limida iqlim o'zgarishlariga oid ilmiy ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish	175
<i>Akbarova Saidaxon Rustamovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida pediatriya talabalari klinik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlarining roli.....	180
<i>Atadjanova Shaira Xalilovna, Umardulov Muxtorali Islomkulovich</i>	

Individual ta'lim muhiti asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy-metodik tayyorlashni takomillashtirish.....	185
<i>Azamatova Dildora Shuxrat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimida raqamli ta'limni joriy etishning innovatsion yondashuvlari va samaradorlik omili.....	189
<i>Babayeva Dilnoz Xaydarovna</i>	
O'qish savodxonligini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni (PISA va PIRLS)	192
<i>Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi</i>	
Yosh rahbarlarda boshqaruv stressining namoyon bo'lishi va boshqaruv faoliyatiga moslashuv muammolari: ta'lim tizimi sharoitida psixologik holat tahlili.....	195
<i>Djavgarova Dilfuza Shuxrat qizi</i>	
Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish asosida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish strategiyalari.....	199
<i>Duvlayeva Nozigul Xolmuxammad qizi</i>	
Enhancing English Learners' Pronunciation Through AI-Based Language Applications.....	203
<i>Egamova Munisa Khakim kizi</i>	
Maktab ta'lim tizimining dars jarayonlarida elektron qo'llanmalardan samarali foydalanish.....	208
<i>Kodirov Akbar Shuxratovich</i>	
Improving the Methodology of Teaching Biochemistry in Medical Higher Education Institutions Through Virtual Laboratory Tools	213
<i>Mamadaliyeva Zarina Rakhmat kizi</i>	
O'smirlarda kommunikativ tolerantlik muammosining nazariy-metodologik asoslari.....	218
<i>Mirsidikova Aziza Mirvohidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini tashkil etishning nazariy asoslari	221
<i>Muxtorova Xusnidaxon Abdug'oporovna</i>	
Improving the Theoretical and Methodological Foundations for Integrating Generative Artificial Intelligence Technologies Into English Language Teaching in Higher Education	226
<i>Nigmatova Nozimakhon Ulugbek kizi</i>	
Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi: zamonaviy yondashuvlar va ilmiy asoslar.....	229
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning ilmiy va ijodiy kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan axborot tizimini yaratish	233
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Ro'zimatova Saidaxon Abdivoixid qizi</i>	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.....	237
<i>Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li</i>	
Oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatlarini samarali tashkil etish	242
<i>Qurbonova G. M.</i>	
Kasbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv yondashuvning metodologik asoslari	245
<i>Raxmatova Shaxnoza Oybek qizi</i>	
Inkluziv ta'limda pedagogik diagnostika: maxsus ehtiyojli o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash	248
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	252
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	254
<i>Shaymatova Aziza</i>	
Dasturiy-metodik majmuani ishlab chiqish bosqichlari hamda pedagogik talablar.....	259
<i>Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi</i>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	265
<i>Suyarova Orzigul Sodiq qizi</i>	



Yoshlarni nikohga tayyorlashda shaxsiy omillar va psixologik yetuklik.....	269
To'xtamatova Nargizaxon Abdullayevna, Buranova Sevara Sa'dullayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida rahbarlarning liderlik kompetensiyalarining hozirgi holatini diagnostika qilish	273
Taylakova Dilnoza Norbekovna, Latifova Mavjuda Xurramovna	
Ta'limga o'qib tushinishni sun'iy intellekt bilan integratsiya qilish imkoniyatlari va pedagogik strategiyalari.....	276
Umarov Bahrom Norboyevich	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	281
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati.....	286
Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi	
Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rganishning ahamiyati va undagi zamonaviy yondashuvlar	289
Yoqubjonova Mohlaroyim Abdumalik qizi	
O'smir shaxsida refleksiyani shakllanishida ota-ona munosabatlarning ta'siri	292
Yulchiboyeva Dilfuza Ergasheva	
Boshlang'ich ta'limda geymifikatsiya orqali til kompetentligini rivojlantirish.....	297
Zakirova Sohila Muxtoraliyevna, Nurmuhamedova Dilshoda Zaynobiddin qizi	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	302
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Ортодонтியда миотерапиya: миогимнастик дентоальвеоляр apparatlarni qo'llashning taqqoslama tavsifi	305
Tursunov Begzod Sherzodovich, Sayfulayeva Aziza Anvarovna	
Музейная педагогика на уроках воспитания в средней школе: методика включения музейных практик в процесс обучения и воспитания подростков	308
Умрихина Виктория Игоревна	
21st Century Dental Innovation Technologies: An Overview	314
Khojimurodov Burkhon Ravshanovich	
Цели и задачи педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах	317
Шарипова Шахноза Шавкат кизи	
Способы повышения мотивации учащихся при изучении русского языка.....	321
Эшонкулов Хамрокул Маматкулович	



MAKTABGACHA TA'LIM VA OILA HAMKORLIGI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILMIY ASOSLAR

Omondavlatova Diyora Otabekovna
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta'lim 2-kurs magistranti

ORCID: 0009-0002-6728-5891

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari bilan oilaning samarali hamkorligi masalasi tahlil qilinadi. Ilmiy manbalar, zamonaviy pedagogik nazariyalar hamda O'zbekistonda va xorijda o'tkazilgan empirik tadqiqotlar asosida mazkur hamkorlikning bolalar rivojiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar va ularni milliy kontekstga moslashtirish yo'llari taklif etilgan bo'lib, bu orqali globallashtirilgan jamiyat sharoitida munosib farzandlarni tarbiyalashda nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, balki oilaning ham o'rni beqiyos ekani ta'kidlangan. Maqola yakunida xorijiy tajriba va tahlillar asosida bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni uchun zarur bo'lgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, jamiyat, shaxs, ko'nikmalar, individual rivojlanish, qo'shma faoliyat, pedagogik ma'rifat, hamkorlik, adaptiv modellar.

Abstract: The article analyzes the issue of effective cooperation between preschool educational institutions and families. Based on scientific sources, modern pedagogical theories, and empirical studies conducted in Uzbekistan and abroad, the impact of such cooperation on children's development is examined. In addition, advanced international practices are presented, along with recommendations for adapting them to the national context. The study emphasizes that in raising well-rounded children capable of thriving in a globalized society, not only preschool educational institutions but also families play an indispensable role. At the conclusion of the article, methodological recommendations necessary for contemporary educational and upbringing processes are developed based on the analysis of international experience.

Key words: preschool educational institution, family, society, personality, skills, individual development, joint activity, pedagogical enlightenment, cooperation, adaptive models.

Аннотация: В статье анализируется проблема эффективного взаимодействия дошкольных образовательных организаций и семьи. На основе научных источников, современных педагогических теорий, а также эмпирических исследований, проведенных в Узбекистане и за рубежом, раскрывается влияние данного взаимодействия на развитие детей. Кроме того, представлены передовые зарубежные практики и предложены пути их адаптации к национальному контексту. Подчеркивается, что в воспитании достойного поколения в условиях глобализованного общества значимую роль играют не только дошкольные образовательные учреждения, но и семья. В заключении статьи на основе анализа зарубежного опыта разработаны методические рекомендации, необходимые для современного образовательного и воспитательного процесса.

Ключевые слова: дошкольная образовательная организация, семья, общество, личность, навыки, индивидуальное развитие, совместная деятельность, педагогическое просвещение, сотрудничество, адаптивные модели.

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida oila va maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik masalasi eng dolzarb yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Chunki bolaning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiy faolligi va bilimga bo'lgan motivatsiyasi, avvalo, oiladagi tarbiya muhiti hamda ta'lim muassasasidagi pedagogik yondashuvlar uyg'unligiga bog'liqdir. Shu jihatdan, oila va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasidagi samarali aloqalar bolaning rivojlanish jarayonining uzviyligini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli¹ qarorida oila va ta'lim muassasalari o'rtasida

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>



hamkorlikni kuchaytirish zarurligi alohida ta'kidlanmoqda ^[1]. Bu esa ta'lim jarayonida ota-onalarning faol ishtirokini ta'minlash, pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik madaniyatini rivojlantirishni talab etadi.

Maktabgacha ta'lim bosqichi – bola shaxsining shakllanishida eng muhim davrlardan biri sanaladi. Ushbu bosqichda bola nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallaydi, balki ijtimoiy-emosional rivojlanish, mustaqil fikrlash, o'zini anglash kabi jarayonlarga asos solinadi. Shu bois, bolani tarbiyalashda nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, balki oila ham faol ishtirok etishi zarur. Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi masalasining chuqur tahlili dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega (Vygotskiy, 1978–yil, B. 56–58) ^[8].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oila va maktabgacha ta'lim tizimi o'rtasidagi hamkorlik bolalarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Vygotskiyning sotsial-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola o'z rivojlanishini faqat mustaqil ravishda emas, balki kattalar va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida amalga oshiradi ^[8, B. 75–78]. Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari nazariyasi esa bolalarning fikrlash qobiliyati yoshga qarab sifat jihatdan o'zgarishini ko'rsatadi ^[9, B. 19–21]. Shu bois, pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik bola rivojlanish bosqichlarini to'g'ri qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Ilmiy adabiyotlarda (Vygotskiy, Bronfenbrenner, Epstein) ta'lim jarayonida oilaning ishtiroki bola rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Xususan, Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga ko'ra, bola rivoji mikro tizimlarda, ya'ni oila va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasidagi o'zaro aloqalar orqali bevosita shakllanadi ^[4]. Epstein esa 2001–yilda oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni olti turga ajratib, ota-onalarning ishtiroki, uy sharoitida o'qitish, maktabdagi kommunikatsiya, ko'ngilli faoliyat, qaror qabul qilishdagi ishtirok hamda hamjamiyat bilan aloqalarni alohida ta'kidlaydi.

Mazkur ilmiy yondashuvlar asosida olib borilgan tadqiqotlar ota-onalar bilan bo'lgan iliq va mazmunli muloqot bolalarning til rivoji, xotira jarayonlari hamda hissiy-ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi. Ijtimoiy-emosional tayyorgarlik jarayonida ota-ona modeli, ya'ni hissiy tarbiya, empatiya va samarali muloqot orqali bolada muhim shaxsiy fazilatlar shakllanadi. Xitoyda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, ota-ona bilan iliq munosabatlar bolalarning sotsial ko'nikmalarini mustahkamlaydi, qat'iy yoki mojaroli munosabatlarda esa ushbu ta'sir sezilarli darajada pasayadi. Kolumbiya hududida amalga oshirilgan longitudinal tadqiqot natijalari esa ota-onaning bolalikning ilk yillaridagi faol ishtiroki bolalarning prosotsial xatti-harakatlarini kuchaytirishini va bu ko'nikmalar vaqt o'tishi bilan barqaror saqlanib qolishini ko'rsatgan. Rivojlanish psixologiyasidagi zamonaviy yondashuvlar, jumladan, uy sharoitida olib boriladigan ta'limiy faoliyat, interaktiv o'qish, sifatli vaqt o'tkazish va iliq munosabatlarning ahamiyati mazkur jarayonlarda alohida o'rin tutishini tasdiqlaydi.

Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi bolalar uchun sifatli ta'lim va tarbiya olish imkoniyatlarini yaratadi. Oila, maktabgacha ta'lim muassasasi va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar bolalarning shaxsiy, ijtimoiy hamda kognitiv rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi samarali hamkorlik bolalarning o'qish jarayoniga moslashuvi, jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Psixologik nuqtai nazardan, mazkur hamkorlik bolalar uchun xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlaydi. Bolalar o'zlarini oila va ta'lim muassasasida bir xil tarzda qabul qilinganligini his qilganlarida, ularning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi va bu holat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi bolalarning sotsializatsiya jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qilib, ijtimoiy munosabatlar o'rnatish, muloqot qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalarining shakllanishiga zamin yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodlari sifatida nazariy tahlil, ilg'or xorijiy tajribalarni solishtirish hamda empirik kuzatishlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi asosiy metodologik asos sifatida qabul qilindi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bola rivoji mikro, mezo, ekzo va makro tizimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi ^[4, B. 22–27]. Shuningdek, Epstein tomonidan ishlab chiqilgan “oilaviy ishtirokning olti turi” modeli ham tadqiqotning metodologik asosi sifatida xizmat qildi ^[5, B. 17–19].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda 2023–yilda 2 milliondan ortiq bola maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etilgan ^[2, B. 4]. Biroq ota-onalar ishtiroki hududlar kesimida notekis bo'lib chiqdi. Ayrim hududlarda ota-onalar maktabgacha ta'limni faqat “bolani nazorat qilish joyi” sifatida qabul qiladilar. Bu holat pedagogik savodxonlik yetishmovchiligi hamda muassasa bilan doimiy aloqa yo'qligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston sharoitida Epsteinning “oilaviy ishtirokning olti turi” modeli muhim amaliy ahamiyatga ega. Mazkur model doirasida ota-onalik (Parenting) ota-onalarga bolalarni sog'lom, xavfsiz va ma'naviy muhitda tarbiyalashda ko'maklashishni nazarda tutadi. Bunda mahalla yoki maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan



ota-onalar uchun tarbiyaviy seminarlar o'tkazish, uy sharoitida bolaning o'yin va o'qish faoliyati uchun qulay muhit yaratish hamda bolani maktabgacha ta'limga tayyorlash bo'yicha tavsiyalar berish muhim hisoblanadi. Aloqa (Communicating) turi maktabgacha ta'lim muassasasi va oila o'rtasida samarali muloqotni yo'lga qo'yishga qaratilgan bo'lib, bunda tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida Telegram guruhlarini orqali muntazam aloqa, ota-onalar yig'ilishlarida bolaning rivojlanish natijalarini muhokama qilish hamda "Ochiq eshiklar kuni" tadbirlarini tashkil etish nazarda tutiladi.

Ko'ngillilik (Volunteering) ota-onalarni ta'lim muassasasi faoliyatiga ko'ngilli sifatida jalb etishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda bayram tadbirlarida ota-onalarning ishtiroki, kasb egalari bo'lgan ota-onalarning "Kasbim – faxrim" mashg'ulotlarida qatnashuvi hamda muassasa hududini obodonlashtirish ishlarida yordam berish muhim ahamiyat kasb etadi. Uyda o'rganish (Learning at Home) esa bolaning uy sharoitida o'qish va o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, ota-onalar bilan birgalikda ertak o'qish, rasm chizish, tarbiyachi tavsiyasiga binoan rivojlantiruvchi o'yinlar o'tkazish hamda bola bilan kundalik muloqot orqali til va tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Qaror qabul qilishda ishtirok (Decision Making) ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga oid qarorlarni shakllantirishda ishtirok etishini ta'minlaydi. Bunda ota-onalar qo'mitasi yoki maslahat kengashi orqali takliflar bildirish, maktabgacha ta'lim dasturidagi yangiliklarni muhokama qilish hamda mahalla kengashi bilan hamkorlikda muhim masalalarda ovoz berish muhim hisoblanadi. Jamoa bilan hamkorlik (Collaborating with the Community) esa oila, ta'lim muassasasi va mahalla o'rtasida mustahkam aloqalar o'rnatishga qaratilgan bo'lib, mahalla, tibbiyot markazlari va kutubxonalar bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil etish, bolalar uchun sayohatlar va sport musobaqalari o'tkazish hamda ijtimoiy tashkilotlar yordamida ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Joyce Epstein tomonidan ishlab chiqilgan ushbu model O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham dolzarb hisoblanadi va bugungi kunda amalda bo'lgan "Ilk qadam" o'quv dasturining 2.5–bandi – "Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik" uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi [3, B. 14]. Ushbu yondashuv oila, maktabgacha ta'lim muassasasi va mahalla o'rtasidagi uzviy aloqalarni mustahkamlashga, bolada ijtimoiy, aqliy va ma'naviy rivojlanish uchun qulay muhit yaratishga hamda ota-onalarni passiv kuzatuvchi emas, balki faol hamkor sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim va oila o'rtasidagi samarali hamkorlik bolalarning rivojlanishida sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ta'limda uzoq muddatli foyda jihatidan Perry Preschool eksperimentida ishtirok etgan bolalarning voyaga yetgach oliy ta'limni tamomlash ko'rsatkichi 20 % ga yuqori bo'lgan, jinoyatchilikka "ishtirok etish" darajasi esa 19 % ga past bo'lgan. Bu holat dasturga sarflangan har bir dollar 8–9 barobar ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltirganini ko'rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni kamaytirish nuqtai nazaridan ham maktabgacha ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar ta'lim muassasasiga qatnay boshlaganlarida o'qish natijalaridagi tafovut oilaviy ta'sirga nisbatan kamayadi, bu esa murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda mavjud tengsizliklarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi erta bosqichda erishilgan ijobiy ta'lim natijalari ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Yizengaw tomonidan 2024–yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ota-onalarning uy sharoitidagi mashg'ulotlarda faol ishtiroki bolalarning akademik kompetensiyalari va ijtimoiy ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan. Parental involvement umumiy natijalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, ayniqsa akademik ko'nikmalar bo'yicha 36 % va ijtimoiy ko'nikmalar bo'yicha 10 % dispersiyaning izohlanishiga ta'sir etgani aniqlangan.

Ilg'or xorijiy tajribalar ham oila va maktabgacha ta'lim hamkorligining samaradorligini ko'rsatadi. Jumladan, Finlyandiyada ota-onalar har chorakda bolaning rivojlanish portfollilarini pedagoglar bilan birgalikda tahlil qiladilar (OECD, 2020–yil, B. 88–90) [6]. Yaponiyada "Oyako no manabi" dasturi orqali ota-ona va bola birgalikda o'rganish jarayoniga jalb etiladi (OECD, 2020–yil, B. 102–104) [6]. Italiyaning Reggio Emilia modelida esa ota-onalar ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida ishtirok etadilar [7, B. 13–15].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi bolaning rivojlanishi hamda ta'lim olishi jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy yondashuvlar va ilmiy asoslar oila va maktabgacha ta'lim tizimi o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayon nafaqat bolalar uchun, balki butun jamiyat uchun ham ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlar keltiradi. Shu bois, oila va ta'lim tizimi o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, yangi yondashuvlar hamda metodlarni joriy etish ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim va oila o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bolalarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida ushbu jarayonni tizimlashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar klublarini tashkil etish, maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun "Oilaviy hamkorlik psixologiyasi" yo'nalishida maxsus kurslarni joriy etish hamda xalqaro tajriba asosida adaptiv



modellarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi bolaning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini inobatga olib, O'zbekiston sharoitida bu jarayonni kuchaytirish zarurati mavjud.

Xususan, har bir maktabgacha ta'lim muassasasida ota-onalar klublarini yo'lga qo'yish, pedagoglar uchun "Oilaviy hamkorlik psixologiyasi" kurslarini joriy etish hamda xalqaro tajriba asosida adaptiv modellarni ishlab chiqish tavsiya etiladi. Shuningdek, uy sharoitida ta'lim jarayonida ishtirokni kuchaytirish orqali bolalar bilan samarali muloqot, o'qish va o'yin faoliyatlari yordamida ularning ijtimoiy-emosional hamda akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Oilaviy munosabatlarni qo'llab-quvvatlash, ota-ona va bola o'rtasidagi iliq munosabatlarni mustahkamlash bolada o'zini xavfsiz his qilish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ota-ona va bola ishtirokidagi ijodiy hamda soft skillsni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni rejalashtirish, ijtimoiy ko'nikmalarni qo'llab-quvvatlovchi faoliyatlarni kengaytirish zarur. Tadbirlar va treninglar dasturini ko'p bosqichli yondashuv asosida tashkil etish, ya'ni prosotsial xatti-harakatlardan boshlanib, akademik qobiliyatlarni rivojlantirishga qadar izchil kengaytirish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha va maktab ta'limini 2030–yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. PQ-4312, 3–bob.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. 2023–yilgi statistik hisobot. – Toshkent, 2023. – 25 b.
3. Ilk qadam davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022. – 100 b.
4. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 b.
5. Epstein J. L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. – Boulder, CO: Westview Press, 2001. – 620 b.
6. OECD. Starting Strong V: Transitions from Early Childhood Education to Primary Education. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 224 b.
7. Reggio Children Foundation. The Reggio Emilia Approach in Early Childhood Education. – Reggio Emilia, Italy, 2022. – 56 b.
8. Vygotskiy L. S. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1978. – 287 b.
9. Piaget J. The Child's Conception of the World. – Totowa, NJ: Littlefield, Adams & Co., 1967. – 246 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.